

HUQUQIY TARBIYANING PSIXOLOGIK KO‘RINISHI

Iskandarova Roziyaxon

Tajiyev Asqar Dushamovich

Xorazm viloyati Xiva tumani 9-maktabning Huquq va tarbiya fani o'qituvchilari

Annotatsiya

Huquqiy tarbiya-shaxsga nisbatan huquqiy ongini, huquqiy ko‘rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko‘zlagan faoliyat yig‘indisi.

Huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongini, huquqiy ko‘rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko‘zlagan holdagi tasvir ko‘rsatilishidir.

Kalit soz‘lar: Tarbiya, Huquq, Huquqiy tarbiya, psixologik tarbiya, tarbiyaning psixologik o‘rni.

Huquqiy tarbiya-shaxsga nisbatan huquqiy ongini, huquqiy ko‘rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko‘zlagan faoliyat yig‘indisi.

Huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongini, huquqiy ko‘rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko‘zlagan holdagi tasvir ko‘rsatilishidir.

Shuni ta’kidlash kerakki, yaqin o‘tmishda ham huquqiy tarbiyaga u haqiqatda sazovor bo‘lishi kerak bo‘lganidek darajada e’tibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda shaxsning aqliy kamoloti, mehnati, jismoniy, ma’naviy, estetik tarbiyasi haqida so‘z borar ediyu, lekin huquqiy tarbiya xususida eslatilmasdi. Tarbiyaviy ishning mustaqil yo‘nalishi tarzida huquqiy tarbiya yo‘nalishining ajratib qo‘yilmasligi o‘ziga kelayotgan avlodning ayrim qismi huquqiy ongi ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. ¹

O‘zbekiston huquqiy davlat barpo etish sari qadam qo‘yilib, bu yo‘lda huquqiy tarbiya, huquqiy ongini takomillashtirish masalalariga katta e’tibor berib kelinmoqda. Bu mas’uliyatli vazifada mehnat jamoalarida, bilim maskanlarida va har bir shaxs bilan olib borish borasida ko‘p qirrali ishlar qilinmoqda.

¹ O.Karimova. “Huquq ta’limini o‘qitish metodikasi”, T.: “O‘zbekiston”, 2011 yil.



Huquqiy tarbiyali bo‘lish uchun har bir shaxs umumhuquq bilimga, uni ongli ravishda qabul qilishga va huquqiy madaniyatni alohida bajarishga yetarli darajada huquqiy saboq olish kerak. Lekin hozirgi paytgacha huquqiy tarbiya tushunchasi, uning tushuntirish metodlari olimlarimiz tomonidan to‘laligicha yoritilmagan.

Huquqiy tarbiyaning keng va tor maonoda ko‘rish mumkin. Keng maonoda butun jamoaning, ko‘pchilikning ongiga taosir ko‘rsatishga qaratilgan tarbiya, tor maonoda esa alohida shaxsga, uning ongiga taosir etish yo‘llari tushuniladi.

Huquqiy tarbiya natijasida keng omma yoki shaxs o‘z hatti – harakatlarining qonuniy ekanligini tushunsa, huquq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa o‘zini ongli ravishda, huquq normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan bo‘lib hisoblanadi.

Demak, huquqiy tarbiya bu- tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko‘zlagan va shaxsga «guruh shaxslariga» taosir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir.

Huquqiy tarbiya hamisha davlatning siyosat, iqtisodiyot va ahloqqa nisbatan o‘z nuqtayi nazarini aholiga aniq yetkazib berishdagi eng ishonchli va samarali vositasi hisoblangan.

Huquqiy tarbiya muammolari Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi mamlakatlarda ham doimo diqqat markazida bo‘lib, u bilan bog‘liq ko‘plab masalalar atroflicha o‘rganib chiqilgan. Huquqiy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga muntazam singdirib borilgan va bu jarayonga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda o‘tkazilgan huquqiy islohotlar, huquqiydemokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar mohiyatini aholi, ayniqsa yoshlarga yetkazish bugungi kun talabidir. Bu esa, o‘z navbatida ta‘lim-tarbiya, ayniqsa huquqiy tarbiyani zamonaviy uslublar asosida yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Adolat va haqiqat har bir jamiyatda hukm surishi lozim bo‘lgan ezgu orzudir. Ana shu orzu davlatimizning bosh Qomusi – Konstitutsiya hamda boshqa qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarining nazariy, amaliy asosini tashkil qiladi.

Prezidentimizning “Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o‘tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo‘lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul”, ”Konstitutsiya va



qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog‘i kerak”, deb aytgan fikrmulohazalari, mamlakatimizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning shaxs, jamiyat va davlat rivoji uchun naqadar muhim va ahamiyatli ekanligini hayotning o‘zi tasdiqlab turibdi.

O‘quvchi yoshlarga huquqiy bilim berishning asosiy maqsadi, ularda huquqiy tushunchalarni shakllantirish va shu asosda huquqiy tarbiyaga erishishdan iboratdir. Huquqiy bilim olish jarayonida o‘quvchilar Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan o‘z huquq va erkinliklarini bilish, ulardan foydalanish va hayotga tatbiq etishga erishishi lozim.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish nafaqat ta‘lim muassasalari, balki oiladan boshlanadi. Ijtimoiy fanlar tizimida huquq fani alohida o‘rin tutadi. Huquqiy bilimlar hayotda, har xil aniq vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘nalish olish, ruxsat etilgan va taqiqlangan narsalar o‘rtasidagi chegarani topa bilish, o‘z huquq va manfaatlarini himoya etishning qonuniy yo‘llari va vositalarini tanlashga o‘rgatadi. Huquqiy bilimlar siyosiy saviyani kengaytiradi, e‘tiqodlar shakllanishiga, hayotdagi huquqiy xodisalarni to‘g‘ri tushunish, huquqiy talablarga ongli ravishda rioya etish, barcha fuqarolarning huquq normalari (qoidalari)ga amal qilish uchun faol kurashishga ko‘maklashadi.

U yoki bu fanni o‘qitishning asosiy shakli dars mashg‘ulotini o‘tish hisoblanadi. O‘tilayotgan dars mashg‘uloti zamonaviy talablarni bajarishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ilmiy asosda tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari shunisi bilan xarakterliki, ular o‘quvchilarning shu fanga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishiga sabab bo‘ladi. Har qanday vaziyatda oqilona, to‘g‘ri xulosa chiqarishga imkon beradigan bilim, malaka, ko‘nikmalar olishga imkoniyat yaratadi.

Huquqiy tarbiya – o‘quvchida ijobiy fazilat (to‘g‘rilik, prinsipiiallik, jamiyat manfaatlarining buzilishiga toqatsizlik, faollik, mas‘uliyatlilik, puxtalik, o‘zaro hurmat, har qanday qiyinchiliklarni bartaraf qila olish, yomonlikka qarshi tura bilish, yordamga muhtoj kishilarga yordam qo‘lini cho‘za bilish qobiliyatlari va shu kabi)lar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda Prezidentimizning “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Unga muvofiq, quyidagi masalalar belgilab berildi:



– jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni, eng avvalo, ta'limtarbiyaning tizimli hamda uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, shaxsiy va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilish;

– yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik, odob-axloq tushunchalarini chuqur singdirib borish, asosiy Qomusimizning muhim jihatlarini bolaligidan boshlab o'rgatish;

– aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiyma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarimizni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil etish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ulari bilan shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini ko'chaytirish;

– davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

– ta'lim va tarbiya tizimi, ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'liq barcha muassasalar o'z faoliyatlarini sof axloqiy, yuksak ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va omma ongiga singdirish, eng muhimi fuqarolarning jamiyat hayotining barcha sohalari, xususan, huquqiy masalalar doirasida ham faolligini yana-da oshirish.

Yoshlarimiz Konstitutsiyaga shunchaki ramz, rasmiyatchilik mahsuli sifatida qaramasdan, uni o'z hayotiy manfaatlari muhrlangan qalqon sifatida ardoqlashi lozim. O'zini hurmat qilgan har bir fuqaro Konstitutsiya va u asosida qabul qilingan qonun va qonunosti aktlarini bilishi, anglashi, hayotda to'g'ri tatbiq qilishi kerak. Chunki bu hujjat mazmun-mohiyatini biladigan inson uchun u noyob huquqiy qurol vazifasini o'taydi. Undan har bir shaxs o'z huquq va erkinliklariga tajovuz qilinganida foydalana bilishi, ko'plab o'zboshimchaliklarning oldini olishda uni mohirona qo'llay olishi mumkin. Konstitutsiyani bilmaslik esa, huquqiy ojizlik belgisidir. Bu holatni konstitutsiyaviy kafolatlarga jiddiy xavf, deb baholash lozim. Insoniyat taraqqiyotining tarixiy yo'li ana shundan dalolat beradi. Demak, Konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun hayotiy dasturilamal, huquqiy tarbiya hamda iftixor manbai, huquqiy qurol, ishonchli qalqon bo'lib xizmat qilishi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Munavvarov A.K Pedagogika.T.:, “O‘qituvchi”, 1996
2. Akbarov A., Turdiev A. O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi qonuniga sharhlar. – T., 2000 yil. 45 –b.
3. O.Karimova. “Huquq ta’limini o‘qitish metodikasi” T.: “O‘zbekiston” 2011 yil, 23-b.
4. Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. –T.: TDYUI, 2004. –138 b.
5. Tursunov I.Nishonaliyev Umumiy pedagogika kursi: Darslik, T.:, “O‘qituvchi” 1997.

